YOSHLAR SLENGI: ZAMONAVIY MULOQOT VA ADABIY TIL O'RTASIDAGI LINGVISTIK MUNOSABAT

Musurmonqulov Adham Abdurashid o'g'li
TerDPI o'qituvchisi,
Xo'jayeva Marjona Mamasaid qizi
TerDPI talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar slengi tushunchasi, uning mazmun-mohiyati hamda til tizimidagi o'rni batafsil tahlil qilinadi. Yoshlar slengining shakllanishi va keng tarqalishiga sabab bo'lgan omillar – internet va ijtimoiy tarmoqlar, xorijiy tillarning kirib kelishi hamda ommaviy madaniyat ta'siri yoritib beriladi.Maqolada yoshlar nutqidagi sleng birliklarining qo'llanish xususiyatlari, ya'ni muloqotni soddalashtirish, tezlashtirish va hissiy jihatdan boyitishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, slengning ijobiy va salbiy tomonlari tahlil qilinib, uning adabiy til me'yorlariga ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *yoshlar slengi, yoshlar nutqi, sleng so'zlar, internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat, xorijiy so'zlar, muloqot, nutq, adabiy til, til rivoji, zamonaviy jamiyat.*

Аннотация. В данной статье подробно анализируется понятие молодежного сленга, его сущность и место в языковой системе. Освещаются факторы, влияющие на формирование и широкое распространение молодежного сленга, такие как интернет и социальные сети, проникновение иностранных языков, а также влияние массовой культуры.В статье рассматриваются особенности употребления сленговых единиц в речи молодежи, в частности их роль в упрощении, ускорении и эмоциональном обогащении общения. Кроме того, анализируются положительные и

отрицательные стороны сленга, а также его влияние на нормы литературного языка.

Ключевые слова: молодежный сленг, речь молодежи, сленговые слова, интернет, социальные сети, массовая культура, иностранные слова, коммуникация, речь, литературный язык, развитие языка, современное общество.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of youth slang, its essence, and its place in the language system. It highlights the factors influencing the formation and widespread use of youth slang, including the internet and social networks, the influx of foreign languages, and the impact of mass culture.The article examines the features of slang usage in youth speech, particularly its role in simplifying, accelerating, and emotionally enriching communication. In addition, both the positive and negative aspects of slang are analyzed, along with its influence on the norms of the standard literary language.

Keywords: youth slang, youth speech, slang words, internet, social networks, mass culture, foreign words, communication, speech, literary language, language development, modern society.

Hozirgi davrda yoshlar orasida sleng so'zlardan foydalanish juda keng tarqalgan. Sleng – bu ma'lum bir guruh vakillari, ayniqsa yoshlar tomonidan kundalik hayotda ishlatiladigan norasmiy so'z va iboralardir. "Sleng ("slang" – ingliz tilidan olingan bo'lib jargon, oddiy, og'zaki leksikaga xos so'zlar), umumiy sleng, maxsus sleng (jargon va argo maxsus so'zlar) hamda vulgarizm (qo'pol so'zlar) haqida so'zdir". [1: 201-b.] Bunday so'zlar odatda oddiy, qisqa va qulay bo'lgani uchun tez ommalashadi. Yoshlar slengi bugungi kunda jamiyat hayotining muhim bir qismiga aylanib ulgurgan. Yoshlar slengining paydo bo'lishida

zamonaviy texnologiyalar katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, internet, telefon va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi slengning keng yoyilishiga sabab bo‘lmoqda. Telegram, Instagram, TikTok kabi platformalarda yoshlar bir-biri bilan tez muloqot qilish uchun qisqartirilgan va oson so‘zlardan foydalanadi. Masalan, *“gap yo‘q”, “zo‘r”, “top”, “klass”, “respect”, “like bosmoq”* kabi iboralar kundalik nutqda ko‘p ishlatiladi. Talabalar nutqida ham sleng so‘zlar ko‘p uchraydi. Masalan, *yopmoq (sesiyani tugatmoq), vozdux (stipendiya), yaxlamoq (imtihondan o‘tolmaslik), stukach (chaqimchi), Vatan (darsdan qochmaydiganlar, berilib oqiy- diganlar), Vatan xoinlari (darsdan qochganlar), chopmoq (darsni chopmoq-qochmoq)*.

Bundan tashqari, boshqa tillarning ta’siri ham seziladi. Ingliz, rus va turk tillaridan kirib kelgan ayrim so‘zlar yoshlar orasida mashhur bo‘lib bormoqda. Masalan, *“okey”, “cool”, “bro”, “privet”, “bye”, “hallo”* kabi so‘zlar yoshlar nutqida tez-tez uchraydi. Bu esa dunyo xalqlari madaniyatining bir-biriga yaqinlashayotganidan dalolat beradi. Sleng so‘zlarning ijobiy tomoni shundaki, ular suhbatni qiziqarli va jonli qiladi. Yoshlar o‘zaro yaqinlikni his etadi, fikrini tez va erkin ifoda etadi. Ba’zi hollarda sleng hazil-mutoyiba va kayfiyatni ko‘tarish vositasi ham bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, sleng yoshlarning zamonaviy hayotga moslashganini ko‘rsatadi.

Lekin slengdan haddan tashqari foydalanish ayrim salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Agar yoshlar doimo sleng bilan gapirsa, adabiy til qoidalarini unutib qo‘yishi ehtimoli bor. Ayniqsa, maktabda, oliygohda, ish joyida yoki rasmiy hujjatlarda sleng ishlatish noo‘rin hisoblanadi. Bunday joylarda toza va ravon adabiy tilda so‘zlash muhimdir. Shu sababli yoshlar slengdan o‘rinli va me’yorida foydalanishi kerak. Kundalik suhbatlarda sleng ishlatish mumkin, ammo ta’lim

jarayonida, rasmiy nutqda va yozma ishlarda adabiy tilga rioya qilish lozim. Ona tilimizni asrab-avaylash va uning boyligini saqlash har bir insonning burchidir.

"Tilshunoslikda sleng va jargon – bu ikki alohida bo'lgan, lekin yaqin tushunchalar hisoblanadi. Ular ikkalasi ham adabiy til me'yoridan chetdadir. Shu sababli ayrim tadqiqotchilar ularni umumiy qilib "noliterar chiqadigan, ijtimoiy guruhlarga xos nutq birliklari hisoblashadi. "Leksika" yoki "ijtimoiy dialektlar" tarkibida birgalikda o'rganadi". [2: 98-b.] Jargon esa ma'lum bir kasb, ijtimoiy qatlam yoki guruh vakillari tomonidan qo'llaniladigan maxsus so'z va iboralar majmuasidir. Jargonning asosiy vazifasi – muayyan soha doirasida muloqotni aniq va ixcham tarzda amalga oshirishdir. U ko'proq professional yoki yarim professional nutqda uchraydi va boshqa soha vakillari uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Slengga nisbatan jargon birliklari ancha barqaror bo'lib, tez-tez o'zgarib turmaydi. Sleng va jargon o'rtasidagi asosiy farq ularning qo'llanish maqsadi va auditoriyasida namoyon bo'ladi. Sleng umumiy norasmiy muloqot vositasi sifatida keng qatlamlar orasida, ayniqsa, yoshlar nutqida faol ishlatilsa, jargon tor doiradagi guruh yoki mutaxassislar nutqiga xosdir. Shuningdek, sleng ko'proq emotsional va obrazli bo'lsa, jargon funksional va aniqlikka yo'naltirilgan bo'ladi. "So'zlashuv uslubi – kishilarning kundalik rasmiy-norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o'ziga xos tarzda amal qilishidir. Bu uslub nutq jarayonida lisoniy (til) va nolisoniy (tildan tashqari imo-ishora, vaziyat) omillarning uyg'un bo'lishi bilan xarakterlanadi". [3:10-b.] Kundalik muloqot doiramizda erkin so'zlashuv uslubi amal qiladi. Tabiiyki, nutqimizda bu elementlar to'laligicha aks etadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar slengi bugungi zamonning ajralmas qismidir. U yoshlarning dunyoqarashi, qiziqishi va zamonaviy hayot tarzini aks ettiradi.

Ammo slengdan foydalanishda me'yorni bilish, ona tiliga hurmat bilan munosabatda bo'lish har bir yosh uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: "Talqin", 2005, – 201 b.
2. Sayfullayeva R.Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T: 2010. – 98 b.
3. O'rinboev B. Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi. Toshkent, 1991, – 114 b.
4. https://cyberleninka.ru/article/n/sleng
5. jihatlari/viewerhttps://tsuull.uz/sites/default/files/erkinova_m4_compressed.pdf